

SUDGACHA BO'LGAN BOSQICHLARDA PROTSESSUAL MUDDATLAR VA ULARNING TASNIFI

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakultetining 4-kurs talabasi

Akramov Sirojiddin Kamoliddin o'g'li

Annotatsiya: ushbu maqolada jinoyat-protsessual muddatlarning tushunchasi, ahamiyati va sudgacha bo'lgan bosqichlardagi tasnifi masalalari tadqiq etilgan. Protsessual muddatlarning jinoyat ishlarini yuritishda qonuniylik, tezkorlik va samaradorlikni ta'minlashdagi roli ko'rsatilgan. Maqolada protsessual muddatlarning huquqiy tartibga solish manbasi, funksiyasi, aniqlik darajasi, vaqt davomiyligi, protsessual bosqichlari va yuridik ahamiyatiga ko'ra tasnifi yoritilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat protsessi, protsessual muddatlar, sudgacha bo'lgan bosqichlar, tergov, surishtiruv, protsessual kafolatlar, protsessual tasnif, protsessual huquq.

ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ СРОКИ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ И ИХ КЛАССИФИКАЦИЯ

Акромов Сироджиддин Камолиддин угли

Ташкентский государственный юридический университет

Студент 4 курса факультета уголовного правосудия

Аннотация: в данной статье исследуются понятие, значение и классификация уголовно-процессуальных сроков на досудебных стадиях. Показана роль процессуальных сроков в обеспечении законности, оперативности и эффективности уголовного судопроизводства. В статье освещается классификация процессуальных сроков по источнику правового регулирования, функциональному назначению, степени определенности, продолжительности, процессуальным стадиям и юридическому значению.

Ключевые слова: уголовное судопроизводство, процессуальные сроки, досудебные стадии, расследование, дознание, процессуальные гарантии, процессуальная классификация, процессуальное право.

PROCEDURAL TIMES AT PRE-TRIAL STAGES AND THEIR CLASSIFICATION

Akramov Sirojiddin Kamoliddin ugli

Tashkent State University of Law
4th year student of the Faculty of Criminal Justice

Abstract: this article examines the concept, significance, and classification of criminal procedural time limits at pre-trial stages. The role of procedural timeframes in ensuring legality, efficiency, and effectiveness in criminal proceedings is demonstrated. The article covers the classification of procedural time limits according to the source of legal regulation, functional purpose, degree of certainty, duration, procedural stages, and legal significance.

Keywords: criminal proceedings, procedural deadlines, pre-trial stages, investigation, inquiry, procedural guarantees, procedural classification, procedural law.

KIRISH

Jinoyat-protsessual muddatlar jinoyat ishlarini yuritishning muhim institutlaridan biri bo'lib, ular jinoyat protsessining tezkorligi, qonuniyligi va samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Protsessual muddatlar shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilish, jinoyat ishlarini o'z vaqtida ko'rib chiqish, protsessual harakatlarning aniq izchillikda amalga oshirilishini ta'minlash kabi ko'plab vazifalarni bajaradi.

O'zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual qonunchiligida protsessual muddatlar tizimi shakllangan bo'lsa-da, ularning qo'llanilishida ayrim

muammolar mavjud. Ayniqsa, sudgacha bo'lgan bosqichlarda protsessual muddatlarning to'g'ri belgilanishi va ularga rioya etilishi jinoyat ishlarini yuritishning dastlabki bosqichlari samaradorligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Zamonaviy sharoitlarda jinoyat protsessida raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi, jinoyat-protsessual qonunchilikni isloh qilish va sud-huquq tizimini liberallashtirish tendentsiyalari protsessual muddatlar institutini yanada takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-avgustdagi «**Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida**»gi PF-6041-son Farmoni doirasida jinoyat protsessida elektron hujjat almashinuvi tizimining joriy etilishi protsessual muddatlarga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda.

Ushbu maqolada sudgacha bo'lgan bosqichlarda protsessual muddatlarning tushunchasi, ahamiyati va tasnifi masalalari tahlil etiladi. Protsessual muddatlarning turli mezonlar asosida tasniflash orqali ularning jinoyat protsessidagi o'ziga xos xususiyatlari va qo'llanilish doirasi yanada chuqurroq o'rganiladi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, protsessual muddatlarga to'g'ri rioya etilishi nafaqat jinoyat protsessining tezkorligi va samaradorligini, balki fuqarolarning huquq va erkinliklarining himoya qilinishini, qonuniylik prinsipining to'liq amalga oshirilishini ham ta'minlaydi. Shu sababli, sudgacha bo'lgan bosqichlarda protsessual muddatlarning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish va ularni amaliyotda qo'llashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish jinoyat-protsessual huquqning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Jinoyat-protsessual qonunchilikda “*protsessual muddat*” tushunchasiga aniq ta’rif berilmagan bo’lsa-da, huquqiy adabiyotlarda bu tushuncha turlicha talqin qilinadi.

Huquqshunos olimlar tomonidan berilgan ta’riflarni tahlil qilsak:

Z.F. Inog‘omjonova protsessual muddatni – “*vaqt oralig‘i bo‘lib, uning mobayinda jinoyat protsessual harakatlar amalga oshirilishi kerak yoki ularni amalga oshirishdan tiyib turish talab etiladi*” deb ta’riflagan¹.

K.T. Mavlanov esa “*jinoyat ishlarini yuritishning vaqtini belgilab beradigan va shu orqali protsess ishtirokchilarini belgilangan tartibga amal qilishga undaydigan institut*” deb hisoblaydi².

M.Kadirova protsessual muddatlarni “*protsess ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini amalga oshirish yoki unga bajarishdan o‘zlarini tiyishiga oid protsessual qounda ko‘rsatilgan yoki unga binoan jinoyat ishini yuritishga mas‘ul bo‘lgan shaxslar tomonidan belgilangan muddatlar*” sifatida ta’riflaydi³.

R.P. Sokol va **T.L. Karepanovalarning** fikricha, “*protsessual muddatlar — bu qonuniylik hamda shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari (erkinlik va shaxsiy daxlsizlik, sud himoyasi, yetkazilgan ziyonni qoplash huquqi) himoyasini ta’minlash mexanizmida muhim ahamiyatga ega huquqiy vositadir*”⁴.

A.V. Mordvinov fikriga ko‘ra, “*protsessual muddat - bu RF Jinoyat-protsessual kodeksining me‘yorlarida yoki uning qoidalariga muvofiq huquqni*

¹ Jinoyat protsessi (Umumiy qism): Darslik./Z.F.Inog‘omjonova um.tahriri ostida.- “YANGI ASR AVLODI”.Toshkent-2002. Bet-204.

² Mualliflar jamoasi// -T.:TDYU nashriyoti, 2021. – Bet-119.

³ Kadirova M. Jinoyat-protsessual muddatlarni takomillashtirish: zaruriyati va imkoniyatlari: Dissertatsiya(Phd). – Toshkent: TDYU, 2011. - B. 28

⁴ Сокол Р.П. Процессуальные сроки в судебных стадиях уголовного судопроизводства Российской Федерации: правовая регламентация и процессуальные особенности. Автореф. дисс. ...канд. юрид. наук.- Владимир, 2008. -С. 5; Корепанова Т.Л. Процессуальные сроки как гарантия защиты конституционных прав и свобод личности в российском уголовном процессе: Автореф. дисс. ...канд. юрид. наук. Ижевск, 2004. -С.14. SJIF: 5.051

*muhofaza qilish organlari va sudning vakolatli subyektlari tomonidan belgilangan muddat bo'lib, uning davomida jinoiy-huquqiy ziddiyatni o'z vaqtida hal etish va jinoiy ish jarayoni maqsadiga erishish uchun qonunchilikda belgilangan protsessual harakatlar amalga oshirilishi va protsessual qarorlar qabul qilinishi kerak bo'lgan davr*⁵.

Keltirilgan ta'riflarni umumlashtirib, quyidagicha ta'rif taklif etish mumkin:

jinoyat-protsessual muddatlar – bu jinoyat protsessida muayyan protsessual harakatlarni amalga oshirish yoki protsessual qarorlar qabul qilish uchun qonun yoki vakolatli organ (mansabdor shaxs) tomonidan belgilangan vaqt oralig'i bo'lib, ular jinoyat ishi bo'yicha ish yuritishning tezkorligini ta'minlash, protsess ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jinoyat-protsessual faoliyatning samaradorligi va tezkorligini oshirish maqsadini ko'zlaydi.

Protsessual muddatlarning jinoyat protsessidagi ahamiyati: Jinoyat-protsessual muddatlar jinoyat protsessida quyidagi muhim vazifalarni bajaradi:

1. **Ishni yuritish tezkorligini ta'minlash vazifasi** – protsessual muddatlar jinoyat ishi qo'zg'atilgan paytdan boshlab to sud hukmi chiqarilguniga qadar bo'lgan jarayonni ma'lum vaqt chegaralari doirasida olib borilishini ta'minlaydi. Bu jinoyat ishini ko'rish jarayonini asossiz cho'zilishining oldini oladi.

2. **Protsessual faoliyatni tartibga solish vazifasi** – muddatlar jinoyat protsessi ishtirokchilari va huquqni qo'llash organlari faoliyatini tashkil etish, rejalashtirish va nazorat qilish imkonini beradi.

⁵ Мордвинов А.В. Процессуальные сроки: особенности установления и исчисления при производстве предварительного расследования: Диссертация - Ижевск – 2021. Б -38ю-.
SJIF: 5.051

3. **Shaxs huquq va erkinliklarini kafolatlash vazifasi** – protsessual muddatlar shaxsning erkinligi va shaxsiy daxlsizligi, sud himoyasi, yetkazilgan ziyonni qoplash kabi konstitutsiyaviy huquqlarining himoyasini ta'minlashga xizmat qiladi.

4. **Protsessual tejamkorlikni ta'minlash vazifasi** – aniq belgilangan muddatlar jinoyat ishlarini yuritishda ortiqcha harakatlarni istisno etish, protsessual resurslardan (vaqt, mehnat, moliyaviy resurslar) oqilona foydalanishga imkon beradi.

5. **Jamiyat manfaatlarini himoya qilish vazifasi** – jinoyat ishlarini tezkor ko'rib chiqish orqali jamiyatda qonuniylik va tartib o'rnatiladi, jinoyat sodir etgan shaxslar o'z vaqtida javobgarlikka tortilib, jinoyatning oldini olish maqsadi amalga oshiriladi. Shunday qilib, protsessual muddatlar jinoyat protsessining qonuniyligi, tezkorligi va samaradorligini ta'minlashning muhim kafolati hisoblanadi.

Sudgacha bo'lgan bosqichlarda protsessual muddatlarning tasnifi. Jinoyat-protsessual muddatlarni tasniflashning turli mezonlari mavjud bo'lib, ularning har biri muddatlarning turli jihatlarini ochib beradi. Huquqshunos olimlar tomonidan taklif qilingan tasniflarni o'rganish asosida, sudgacha bo'lgan bosqichlarda qo'llaniladigan protsessual muddatlarning quyidagi asosiy tasniflarini keltirish mumkin:

I. Huquqiy tartibga solish manbasiga ko'ra tasnifi:

a) Qonun bilan belgilangan muddatlar -bu muddatlar bevosita jinoyat-protsessual qonunchiligda belgilangan bo'lib, ularga o'zgartirishlar kiritish faqat qonunchilikni takomillashtirish tartibida amalga oshirilishi mumkin. Masalan: Ushlangan shaxsni so'roq qilish muddati (JPK 110-moddasi), Qamoqqa olish

tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash muddati (JPK 245-moddasi), Tergovga qadar tekshiruv muddati (JPK 329-moddasi), Dastlabki tergov muddati (JPK 351-moddasi), Surishtiruv muddati (JPK 381⁷-moddasi). Bu muddatlar qat'iy bo'lib, ularni o'zgartirish uchun qonunchilik tashabbusi huquqiga ega subyektlar tomonidan qonun loyihasi kiritilishi va qonunchilikda belgilangan tartibda qabul qilinishi talab etiladi. Bu esa protsessual muddatlarning barqarorligini va huquqiy aniqligini ta'minlaydi, protsess ishtirokchilarining huquqlarini kafolatlaydi.

b) Idoraviy hujjatlar bilan belgilangan muddatlar - bu muddatlar prokuratura, ichki ishlar vazirligi, milliy xavfsizlik xizmati va boshqa tegishli idoralarning lokal hujjatlari (buyruqlar, nizomlar, yo'riqnomalar) bilan belgilanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorining 2016-yil 22-fevraldagi 129-sonli buyrug'ining 5.29-bandida dastlabki tergovni to'xtatish va jinoyat ishini tugatish haqida qabul qilingan qarorlarning qonuniyligini bir oy muddatda nazorat qilish belgilangan. Bu muddatlar idoralarning o'ziga xos faoliyat yuritish xususiyatlarini hisobga olgan holda belgilanadi va zarurat tug'ilganda tegishli idora rahbari tomonidan nisbatan tezroq o'zgartirilishi mumkin. Bu esa protsessual muddatlarni tezkor tartibga solish va amaliyot talablariga moslashtirishga imkon beradi⁶.

c) Vakolatli organ yoki mansabdor shaxs tomonidan belgilanadigan muddatlar -bu muddatlar jinoyat ishini yuritayotgan tergovchi, prokuror yoki sud tomonidan har bir aniq holatdan kelib chiqqan holda belgilanadi. Masalan: prokuror tomonidan tergovchiga qo'shimcha tergovni o'tkazish uchun belgilangan

⁶ O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori buyrug'i. "Jinoyatchilikka qarshi kurash, surishtiruv, dastlabki tergov va tezkor-qidiruv faoliyatida qonun ustuvorligini hamda shaxsning huquq va erkinliklari himoyasini samarali ta'minlash to'g'risida". 2016 yil 22-fevral. 129-son. B-15.

muddat, tergovchi tomonidan protsess ishtirokchilariga protsessual hujjatlar bilan tanishish uchun belgilanadigan muddat (JPK 376-moddasi).

II. Protsessual funksiyasiga ko‘ra tasnifi:

a) Tashkiliy-tartibga soluvchi muddatlar -bu muddatlar jinoyat protsessining tegishli bosqichlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilashga xizmat qiladi. Masalan:tergovga qadar tekshiruv muddatlari (JPK 329-moddasi) – darhol, 10 sutka va bir oy. Dastlabki tergov muddatlari (JPK 351-moddasi) – uch oy, besh oy, yetti oy

va surishtiruv muddatlari (JPK 381⁷-moddasi) – bir oy va yigirma kun. Prokuror nazorati bilan bog‘liq muddatlar – masalan, jinoiy ishni sudga oshirish to‘g‘risidagi qarorni tasdiqlaydigan prokurorga yuborish muddati, prokurorning jinoyat ishini ko‘rib chiqish muddati(JPK 385-moddasi). Bu muddatlar jinoyat ishining qonuniyligi va asoslilikini tekshirish, zarur hollarda qo‘shimcha tergov o‘tkazish, ayblov xulosasini tasdiqlash yoki uni o‘zgartirish, jinoyat ishini sudga yuborish yoki tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun belgilanadi. Bu muddatlar jinoyat ishini yuritishning har bir bosqichining vaqt chegaralarini belgilaydi, protsessual harakatlarning ma’lum ketma-ketlikda va aniq muddatlarda amalga oshirilishini ta’minlaydi. Shu orqali jinoyat protsessining izchillik va tartibliligi ta’minlanadi.

b)Protsessual huquqlarni amalga oshirish muddatlari - Bu muddatlar protsess ishtirokchilarining o‘z huquqlarini amalga oshirishi uchun berilgan muddatlar hisoblanadi. Masalan: qaror ustidan shikoyat berish muddati (JPK 241-moddasi), iltimosnomalar berish muddati (JPK 377-moddasi), protsessual hujjatlar bilan tanishish muddati. Bu muddatlar protsess ishtirokchilariga o‘z huquqlarini samarali amalga oshirish imkonini beradi, ularga o‘z manfaatlarini himoya qilish

uchun yetarli vaqt kafolatlaydi. Shu bilan birga, bu muddatlar jinoyat ishi yuritishning asossiz cho'zilishini oldini oladi.

c) Protsessual majburiyatlarni bajarish muddatlari - bu muddatlar protsess ishtirokchilarining o'z protsessual majburiyatlarini bajarishi uchun belgilangan muddatlar hisoblanadi. Masalan: guvoh yoki boshqa protsess ishtirokchilarining tergovchi, surishtiruvchilarning yozma chaqiruviga asosan tergov harakatlarida hozir bo'lishi (JPK 66-moddasi), Sud topshirig'ini bajarish muddati. Bu muddatlar protsess ishtirokchilarining o'z protsessual majburiyatlarini o'z vaqtida bajarilishini ta'minlaydi, shu orqali jinoyat ishini yuritish jarayonining uzluksizligi va tartibliligi kafolatlanadi.

III. Muddatlarning aniqlik darajasiga ko'ra tasnifi:

a) Aniq belgilangan muddatlar -bu muddatlar kodeksda aniq vaqt birliklari (soat, sutka, oy) bilan ko'rsatilgan bo'lib, ularga qat'iy rioya qilish talab etiladi. Masalan:tergovchi tomonidan ushlanganligi rasmiylashtirilganidan keyin 48 soat ichida ayblovi e'lon qilinishi (JPK 226-moddasi), dastlabki tergov 3 oy ichida tugallanishi (JPK 351-moddasi), qamoqqa olish 3 oy muddatgacha qo'llanilishi (JPK 245-moddasi). Bu muddatlar aniq vaqt birliklari bilan o'lchanadi va ularning buzilishi protsessual qonun buzilishiga olib keladi. Aniq muddatlar huquqiy aniqlikni ta'minlaydi, protsessual faoliyatni rejalashtirish va nazorat qilish imkonini beradi.

b) Nisbiy muddatlar -bu muddatlar ma'lum bir harakatning tezda, zudlik bilan, kechiktirmasdan bajarilishi kerakligini ko'rsatadi, lekin aniq vaqt oralig'i belgilanmaydi. Masalan: «*Kechiktirmasdan*» (JPK 225-moddasi), «*Darhol*» (JPK 329-moddasi) **kabi so'zlar bilan belgilanishi mumkin**. Nisbiy muddatlar muayyan protsessual harakatlarning tezkorlik bilan, lekin ish holatlari va imkoniyatlarni

hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerakligini ko'rsatadi. Bu turdagi muddatlar jinoyat protsessiga ma'lum darajada moslashuvchanlik kiritadi, harakatning aniq sharoitlariga qarab eng maqbul vaqtda amalga oshirilishiga imkon beradi.

IV. Muddatlarning vaqt davomiyligiga ko'ra tasnifi:

a) Qisqa muddatlar (72 soatgacha) - bu muddatlar odatda shaxsning huquq va erkinliklarini bevosita cheklaydigan harakatlar uchun belgilanadi: ushlab turish muddati (JPK 226-moddasi) – 48 soat, Qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish muddati (JPK 243-moddasi) – 12 soat, qarorlarga e'tiroz bildirish muddati (JPK 241-moddasi) – 24 soat. Qisqa muddatlar shaxsning huquq va erkinliklarining asossiz va uzoq vaqt cheklanishining oldini olishga, protsessual harakatlarning tezkor va samarali amalga oshirilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, ular jinoyat ishini yuritishda protsessual tejamkorlikni ta'minlaydi.

b) O'rta muddatlar (72 soatdan 3 oygacha) - bu muddatlar odatda jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergov va surishtiruv bosqichlarida asosiy protsessual harakatlarni amalga oshirish uchun belgilanadi: qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashning dastlabki muddati (JPK 245-moddasi) – 3 oygacha, jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergov muddati (JPK 351-moddasi) – 3 oy, surishtiruv muddati (JPK 381⁷-moddasi) – 1 oy. O'rta muddatlar protsessual harakatlarning o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishini ta'minlashga, jinoyat ishini yuritishni asossiz cho'zmaslikka xizmat qiladi. Bu muddatlar jinoyat ishining murakkabligini va hajmini hisobga olgan holda belgilanadi.

c) Uzoq muddatlar (3 oydan yuqori) - bu muddatlar murakkab jinoyat ishlari bo'yicha yoki maxsus holatlar mavjud bo'lganda qo'llaniladi: Dastlabki tergovning uzaytirilgan muddati (3 oy, 5 oy va 7 oy), Qidiruvda bo'lgan

ayblanuvchi bo'yicha ish yuritishni to'xtatib turish muddati (JPK 364-moddasi) – to'xtatib turish asoslari bartaraf etilgunga qadar, Qamoqda saqlashning uzaytirilgan muddati (3,5 va 7 oy). Uzoq muddatlar murakkab jinoyat ishlarini har tomonlama, to'liq va xolisona tergov qilish, dalillarni to'plash va tekshirish, murakkab ekspertizalar o'tkazish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu muddatlar qonunda belgilangan tartibda va asoslar mavjud bo'lgandagina qo'llanilishi kerak.

V. Protsessual bosqichlar bo'yicha tasnifi:

a) Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichidagi muddatlar - bu bosqichdagi muddatlar jinoyat to'g'risidagi xabar va arizalarni ko'rib chiqish, tergovga qadar tekshiruv o'tkazish, jinoyat ishini qo'zg'atish yoki qo'zg'atishni rad etish bilan bog'liq: Ariza yoki xabarni ko'rib chiqish muddati – darhol, 10 sutka va bir oy (JPK 329-moddasi). Bu muddatlar jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichidagi protsessual harakatlarning tezkorligini ta'minlaydi, fuqarolarning murojaatlarini o'z vaqtida ko'rib chiqish, jinoyat alomatlari mavjud bo'lganda jinoyat ishini qo'zg'atish, mavjud bo'lmaganda esa qo'zg'atishni rad etish orqali qonuniylikni ta'minlaydi.

b) Surishtiruv bosqichidagi muddatlar-bu muddatlar jinoyat ishi bo'yicha surishtiruv o'tkazish, surishtiruv natijalarini rasmiylashtirish va keying bosqichlarga o'tkazish bilan bog'liq:

- Surishtiruv o'tkazish muddati – bir oy (JPK 381⁷-moddasi)
- Surishtiruv muddatini uzaytirish – yigirma kun
- Surishtiruv natijalarini rasmiylashtirib, ayblovdalolatnomasini tuzish

kabi muddatlar. Surishtiruv bosqichidagi muddatlarda tergov harakatlarini tezkor o'tkazish, dalillarni to'plash va mustahkamlash, ayblanuvchini aniqlash va unga

nisbatan ayblov e'lon qilish jarayonlarining o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlanadi.

c) Dastlabki tergov bosqichidagi muddatlar -bu muddatlar jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergov o'tkazish, tergov harakatlarini amalga oshirish, ayblov e'lon qilish, ishni sudga yuborish bilan bog'liq:

- Dastlabki tergovni o'tkazish muddati – uch oy (JPK 351-moddasi)
- Dastlabki tergov muddatini uzaytirish – besh oy va yetti oy
- Ehtiyot choralarini qo'llash va ularning amal qilish muddatlari
- Jinoyat ishi yuritishni to'xtatib turish va qayta tiklash muddatlardir.

Dastlabki tergov bosqichidagi muddatlar jinoyat ishi bo'yicha zarur tergov harakatlarini o'tkazish, dalillarni to'plash va tekshirish, jinoyat sodir etgan shaxsni aniqlash va unga nisbatan ayblov e'lon qilish, ayblov xulosasini tuzish jarayonlarining qonuniy va asosli ravishda amalga oshirilishini ta'minlanadi.

d) Prokuror nazorati bilan bog'liq muddatlar

Bu muddatlar prokurorning jinoyat ishi ustidan nazorat qilish, hujjatlarni tekshirish, qarorlarni tasdiqlash bilan bog'liq:

- Jinoiy ishni sudga oshirish to'g'risidagi qarorni tasdiqlaydigan prokurorga yuborish muddati
- Prokurorning jinoyat ishini ko'rib chiqish muddati (JPK 385-moddasi) – 5 kun,
- Prokurorning jinoyat ishi bo'yicha qaror qabul qilish muddati.

Prokuror nazorati bilan bog'liq muddatlar jinoyat ishining qonuniyligi va asoslilikini tekshirish, zarur hollarda qo'shimcha tergov o'tkazish, ayblov xulosasini tasdiqlash yoki uni o'zgartirish, jinoyat ishini sudga yuborish yoki

tugatish to'g'risida qaror qabul qilish jarayonlarining o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlanadi.

VI. Muddatlarning yuridik ahamiyatiga ko'ra tasnifi:

a) Qayta tiklanadigan muddatlar -bu muddatlar o'tkazib yuborilgan bo'lsa-da, uzrli sabablarga ko'ra qayta tiklanishi mumkin bo'lgan muddatlar hisoblanadi. Masalan:

- Qaror ustidan shikoyat berish muddati
- Iltimosnoma berish muddati
- Protsessual hujjatlar bilan tanishish muddati.

Qayta tiklanadigan muddatlar protsess ishtirokchilarining protsessual huquqlarini amalga oshirish imkonini beradi, hatto ular bu muddatlarni uzrli sabablarga ko'ra o'tkazib yuborgan bo'lsalar ham. Bu esa protsess ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning qo'shimcha kafolati bo'lib xizmat qiladi.

b) Qayta tiklanmaydigan muddatlar -bu muddatlar o'tkazib yuborilganda qayta tiklanishi mumkin bo'lmagan, yakuniy xarakterga ega bo'lgan muddatlar hisoblanadi. Masalan:

- Ushlab turish muddati (48 soat)
- Jinoyat ishini qo'zg'atish muddati (jinoyat sodir etilgan kundan boshlab jinoyatning turi bo'yicha belgilangan muddatlar). Qayta tiklanmaydigan muddatlar jinoyat protsessining qat'iy tartibini ta'minlaydi, huquqiy munosabatlar barqarorligini kafolatlaydi. Bu muddatlarning o'tishi ma'lum huquqiy oqibatlarga olib keladi, masalan, shaxsni javobgarlikka tortish imkoniyatining yo'qolishi yoki protsessual huquqni amalga oshirish imkoniyatining yo'qolishi.

Xulosa

Jinoyat-protsessual muddatlar sudgacha bo'lgan bosqichlarda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular jinoyat ishini yuritish jarayonini tartibga solish, protsess ishtirokchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilish, jinoyat protsessining tezkorligini ta'minlash, protsessual resurslardan oqilona foydalanish kabi vazifalarni bajaradi.

Sudgacha bo'lgan bosqichlarda protsessual muddatlarning turli mezonlar asosida tasniflanishi ularning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini chuqurroq anglashga, jinoyat protsessidagi ahamiyatini to'liqroq tushunishga yordam beradi. Protsessual muddatlarning huquqiy tartibga solish manbasi, protsessual funksiyasi, aniqlik darajasi, vaqt davomiyligi, protsessual bosqichlar va yuridik ahamiyatiga ko'ra tasniflanishi ularning jinoyat-protsessual huquq tizimidagi o'rnini ko'rsatadi. Protsessual muddatlarga rioya etilishi jinoyat ishlarini yuritishning qonuniyligi, asoslilik va samaradorligini ta'minlashning muhim kafolati hisoblanadi. Shuning uchun, jinoyat protsessida ishtirok etuvchi barcha subyektlar uchun protsessual muddatlarning tushunchasini, turlarini va ularning tasnifini bilish amaliy ahamiyatga ega bo'lib, jinoyat protsessida qonuniylik va adolatni ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 39-bobi "Protsessual muddatlar" deb nomlansada, jinoyat protsessula muddatlar tushunchasig aniq ta'rif berib o'tilinilmagan. JPK 39-bobi, muddatlarni hisoblash bilan boshlanib ketgan. Shu sababli, dastlab JPK ga 313¹-moddasi qo'shish orqali, protsessual muddat tushunchasiga ta'rif berib keyin muddatlarni hisoblash maqsadga muvofiq bo'lardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jinoyat protsessi (Umumiy qism): Darslik./Z.F.Inog‘omjonova um.tahriri ostida.- «YANGI ASR AVLODI». Toshkent-2002. Bet-204.
2. Jinoyat-protsessual huquqi. Umumiy qism. Darslik. // Mualliflar jamoasi. / yu.f.d., dots. G.Z.To‘laganova va yu.f.n., dots. S.M.Raxmonovalarning umumiy tahriri ostida --Toshkent: TDYU nashriyoti, 2016. -- B-399.
3. Kadirova M. Jinoyat-protsessual muddatlarni takomillashtirish: zaruriyati va imkoniyatlari: Dissertatsiya(Phd). – Toshkent: TDYU, 2011. - B. 28.
4. O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori buyrug‘i. «Jinoyatchilikka qarshi kurash, surishtiruv, dastlabki tergov va tezkor-qidiruv faoliyatida qonun ustuvorligini hamda shaxsning huquq va erkinliklari himoyasini samarali ta’minlash to‘g‘risida». 2016 yil 22-fevral. 129-son. B-15.
5. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sud-huquq tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish va innovatsion loyihalarni amalga oshirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6041-son Farmoni, 2020 yil 10 avgust // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2020 y., 32-son.
7. Корепанова Т.Л. Процессуальные сроки как гарантия защиты конституционных прав и свобод личности в российском уголовном процессе: Автореф. дисс. ...канд. юрид. наук. Ижевск, 2004. -С.14.
8. Мордвинов А.В. Процессуальные сроки: особенности установления и исчисления при производстве предварительного расследования: Диссертация - Ижевск -- 2021. Б -38ю-.
9. Сокол Р.П. Процессуальные сроки в судебных стадиях уголовного судопроизводства Российской Федерации: правовая

регламентация и процессуальные особенности. Автореф. дисс. ...канд. юрид.
наук.-Владимир, 2008. -С. 5.